

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-5/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo'latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i> <i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i> <i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i> <i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i> <i>Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.</i> <i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i> <i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i> <i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i> <i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i> <i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i> <i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i> <i>Ibragimov Baxtiyor To'laganovich, k.f.d., akad.</i> <i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i> <i>Ismailov Is'haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumanov Murat Arepbayevich, d.b.n., prof.</i> <i>Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.</i> <i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i> <i>Karimov Ulug'bek Temirbayevich, DSc</i> <i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i> <i>Qutliyev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d.</i> <i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i> <i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i> <i>Maxmudov Rauffjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i> <i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i>	<i>Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.</i> <i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i> <i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i> <i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i> <i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i> <i>Raximova Go'zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro'zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro'zmetov Dilshod Ro'zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> <i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i> <i>Salayev San'atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> <i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i> <i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.</i> <i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i> <i>Sobitov O'lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i> <i>Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.</i> <i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i> <i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i> <i>Cho'ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> <i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i> <i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i> <i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>O'razboyev G'ayrat O'razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O'rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> <i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i> <i>Hasanov Shodlik Bekpo'latovich, k.f.n., k.i.x.</i> <i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i> <i>Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.</i>
--	---

Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/4 (114), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2024 y. – 531 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo'limi – Xorazm Ma'mun akademiyasi

МУҲДАРИЖА

FILOLOGIYA FANLARI

Abbasova M. “Boburnoma”da joy nomlarining inglizcha tarjimalari muqoyasasi	7
Abduganiyeva J.R. Psycholinguistic peculiarities of translating diplomatic discourse	11
Abdualilova F.Sh. Oziq-ovqat iboralarining qo‘llanilishi	13
Abdullayeva G.E. “Es” olmoshining nemis va o‘zbek tillarida kontrastli ifodalanilishi	15
Abdullazoda M.R. Sociolinguistic factors of politeness	18
Abdumalikova D.A. Badiiy matnda diskursiv markerlarning ifodalanishi	20
Abdurakhmanova Z.Yu. The similarities and contrasts between legal words in uzbek and chinese languages	22
Abdurakhmonova A.A. Exploring the grammatical features of punctuation	25
Abduraxmanova M.T. O‘zbek va turk tillarida leksik omonimlarning yuzaga kelish omillari	27
Abdurazzakova M. Paralingvistikaning asosiy tushunchalari	30
Abdurazzaqov Yu.U. Turli tizimli tillarda “ijtimoiy jins”ga xos belgilarning ifodalanishi	32
Abdurazzakov Yu. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning sotsiolingvistik tadqiqi	34
Abdusattorova B.P. “Kayfiyat” konsepti verbalizatorlarining struktural-semantik va lingvopragmatik jihatlar	36
Abduvaliyeva Z.N. Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida hozirgi zamon fe‘lining matnda qo‘llanilishi	40
Achilov O.R. Tilshunoslikda ilgari surish hodisasi	42
Ahmadaliyeva M.Sh. Ijodiy jarayonning mangukka yo‘g‘rilishi	45
Akbarova Sh.M. Tog‘ay Murod asarlarining lingvopragmatik tadqiqi	47
Akhmadullina A.I. Navigating the polysemy of philosophical terms	49
Akhmedova N.A. Types of units expressing the mental state of a person in the uzbek language according to their semantics	51
Alimova K.T. Allomorphic and isomorphic features of english and uzbek guide-interpreter speech	53
Aliqulova D. A. Qodiriy va F.Dyushen ijodida badiiy psixologizm	55
Allayev Z.M. Interpretation of symbols in uzbek written dream interpretation books	58
Amanlikova N.R. Badiiy ta’rif yozuvchining o‘ziga xos uslubi doirasida mantiqiy va obrazli fikrlar uyg‘unligi	60
Aripova I.I., Toshpulatova M.Q. Inson xususiyatlarini ko‘rsatuvchi hayvon obrazlari qatnashgan ingliz va o‘zbek maqollarining tahlili	63
Ashirova M.T. Comparative typological studies at the present stage of linguistics development	66
Axmedova A.K. Sinkler Lyuis nasrida antifashizm go‘yalarining badiiy tasviri	68
Bafoyev F., Orifova L. Abdulla Oripov she‘riyatida oddiy folklorizmlar	70
Baisov A. Poetik konstruksiya takomilida o‘zbek va ingliz hikoyalari sintezi	73
Bahodirova F.B. Ingliz tilida korporativ aloqada emotiv leksika. lingvo-pragmatik aspekt	76
Bakhramova Z.R. Lexical-semantic features of the terminology in english and uzbek languages	78
Begizova M. Typology of tasks for acquisition of reading materials	81
Bekniyozova F.O’. Lingvoaksiologiya antroposentrik tilshunoslik asosida shakllangan yangi lisoniy fan sifatida	84
Berdimuratova M. Alpomish dostonida yuz ifodasiga oid noverbal vositalarning qo‘llanilishi	86
Bobomurotova S.R. Ogahiy devonida maishiy leksikaga oid so‘zlar	89
Botirova Sh.I. Janrning shakllanish bosqichlari va an‘anaviylik	92
Botirova Sh.I. Erkin Vohidovning she‘rlarining metaforik xususiyatlari	94
Botirova M.B. Reklamalarda olmoshlarning uslubi xususiyatlari	96
Boymanov E. Turizm terminologiyasi va sohaning tarixiy taraqqiyoti	99
Bo‘tayeve N. Komil Xorazmiy g‘azallarining shakl ususiylatlari va bayt poetikasi xususida	102
Buronov I.Q. Alisher Navoiy shaxsini o‘rganish metodologiyasi	104
Buronova X.T. O‘zbek tili tibbiy terminlarining miqdoriy leksikografik qiyosi	107
Chariyeva S.T. Professor To‘Ra Nafasov tadqiqotlarida fitotoponimlar	110
Davlatova A.A. 5-6 yoshli bolalar nutqida uchraydigan metonimiyalarning milliy-madaniy xususiyatlari	114
Davletova L.,Maxmudov R. O‘zbek toponimikasining shakllanish tamoyillari	116
Do‘smatov S. Abu Muhammad Haririy va uning maqomalari	119
Egamberganova M., Bahodirova F. Siyosiy diskurs	121
Elmirzayeva M.D. Ijtimoiy himoya terminlarini tartibga solish masalasining lingvistik asoslari	124
Ergashev A.H. Rus va o‘zbek adabiy tanqidida esse janrining kelib chiqishi	129
Ergasheva U.X. Odil Yoqubov asarlarida sifat ma‘no turlarining talqini va tavsifi	131
Ergasheva Sh.E. O‘zbek va ingliz tillaridagi xulq-atvor fe‘llarining leksik tahlili	133
Ergasheva X. Qishloq xo‘jaligiga oid atamalarining leksik-semantik xususiyatlari	137
Eshmurodov M. Xorazm turkiy tarixnavisligida davlat boshlig‘i tushunchasining ifodalanishi	139
Esonov R.R. Xalq og‘zaki ijodi matnini lingvokulturologik tahlil qilish	143
Fazilova N.I. The importance of considering cultural context in film translation	145
Fazilov O.Yu. O‘zbek va ingliz tillarida xosila nominalining motivatsion asoslari	148

12. [https://en.wikipedia.org/wiki/Parallelism_\(grammar\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Parallelism_(grammar))
13. Van Peer, Willie (1986). *Stylistics and psychology: Investigations of foregrounding*. London: Croom Helm.
14. Miall, David S.; Kuiken, Don (1994). "Foregrounding, defamiliarization, and affect: Response to literary stories". *Poetics*. 22 (5): 389–407. CiteSeerX 10.1.1.595.8502. doi:10.1016/0304-422x(94)00011-5. ISSN 0304-422X.
15. Dixon, Peter; Bortolussi, Marisa; Twilley, Leslie C.; Leung, Alice (1993). "Literary processing and interpretation: Towards empirical foundations". *Poetics*. 22 (1–2): 5–33. doi:10.1016/0304-422x(93)90018-c. ISSN 0304-422X.
16. Hakemulder, Jemeljan F. (2004). "Foregrounding and Its Effect on Readers' Perception". *Discourse Processes*. 38 (2): 193–218. doi:10.1207/s15326950dp3802_3. ISSN 0163-853X. S2CID 143273260.
17. Zyngier, S.; van Peer, W.; Hakemulder, J. (2007-12-01). "Complexity and Foregrounding: In the Eye of the Beholder?". *Poetics Today*. 28 (4): 653–682. doi:10.1215/03335372-2007-011. ISSN 0333-5372.
18. Kuijpers, Moniek M.; Hakemulder, Frank (2017-12-28). "Understanding and Appreciating Literary Texts Through Rereading". *Discourse Processes*. 55 (7): 619–641. doi:10.1080/0163853x.2017.1390352. hdl:21.11116/0000-0002-1C1F-E. ISSN 0163-853X.
19. Harash, A. (2020). "Attention, Aesthetic Appraisal and Semantic Noise while Reading a Literary Text (Doctoral dissertation, TEL AVIV UNIVERSITY)".
20. Koopman, Eva Maria (Emy) (2016). "Effects of "literariness" on emotions and on empathy and reflection after reading". *Psychology of Aesthetics, Creativity, and the Arts*. 10 (1): 82–98. doi:10.1037/aca0000041. hdl:1765/89355. ISSN 1931-390X.

UO'K 821.161.1 – 1 "19/20"

IJODIY JARAYONNING MANGULIKKA YO'G'RILISHI

M.Sh.Ahmadaliev, tadqiqotchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Maqolada badiiyatda ijodiy jarayonning mangulikka yo'g'rilishi haqida so'z boradi. Misol sifatida o'zbek shoriyasi Zulfiya ijodidan namunalar keltirilgan. Shoiraning mashxur ijod namunalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ijodiy jarayon, Zulfiya, shoira, zamon farzandi, tahlillar

Аннотация. В статье говорится о направлении творческого процесса в искусстве. В качестве примера приведены примеры из творчества узбекской поэтессы Зулфиы. Анализируются известные произведения поэта.

Ключевые слова: творческий процесс, Зулфиya, поэтесса, дитя времени, анализ

Abstract. The article talks about the direction of the creative process in art. As an example, examples from the work of the Uzbek poet Zulfia are given. Famous works of the poet are analyzed.

Keywords: creative process, Zulfia, poetess, child of the times, analysis

Buyuk shoirlarning buyukligiga o'zi yashab turgan davrning iste'dodli vakillari ham kashf qilishda o'z ulushini qo'shadi. Chunki zamon har qanday mafkurani adabiyotga tiqishtirmasin, buni anglab yetgan ijodkorki bor, masalaning mohiyatida aks etayotgan fikrlarni tezda tahlillaydi. Shoira Zulfiya ham har bir she'rda faqat zamon farzandi ekanligini emas, o'zbek adabiyotining, ustozlari izidan ergashib, yangi yo'l topganligini isbotlashga harakat qiladi. "Sensiz" turkumiga kiruvchi she'riy asarlarida shoira yolg'izlik va tanholik insonga xos emasligini, lekin qismat bitigidan qochib bo'lmaganidek, hayotning bir tragik sahnasi sifatida talqin qiladi. Bu o'rinda yurakning tengsiz hissiy idroki ilhom chashmasidan limmo-lim oqadi. Tog' bag'ridan sizib chiqayotgan buloqlar mayda-mayda irmoqlardan hosil bo'lib, daryoni hosil qilganidek, shoira tuyg'ulari ham ana shu iromoqlarning birlashuvini yodimizga soladi. Ushbu birbutunlik shoira kechinmalarining hayotbaxsh sururini namoyon qila olgan. Undagi lirik kechinma, poetik obraz, hissiy-shuuriy hayajon tuhfasini mazmunan og'ir dardga chalingan bemor volasi emasikin degan o'y ham o'tadi boshingizdan. Negaki, "sensiz"lik bag'rida bir inson umrining butun murakkabligi, shu qismat bilan "siylanish", vaqti kelib barchasi iziga tushishiga umid borligi yaqqol ko'z o'ngimizda zohir bo'ladi.

Shoira Zulfiyaning "Tong bilan shom aro" nomli saylanma asarida "Hijron kunlarida" deya atalgan mo'jaz fasli bor. Bu faslda jami o'n yettita she'r mavjud. Tabiiy savol tug'iladi: nega aynan "Hijron kunlarida" deb nomlaydi? Bu turmush o'rtog'i H.Olimjonning vafotidan keyingi turli yillarda yozilgan she'rlari shular jumlasidandir. Chunki aynan ushbu faslda – xayol va hayot orasidagi tinimsiz kursh, intim-psixologik, tragik tafsilotlar o'z yechimini topgan. Mazkur fasldagi she'rlari yuqorida tavsiflanb o'tgan tamoyil "Muhabbat mavzusidagi she'rlar jamlanmasi" deyishimizga muayyan asos beradi. Jumladan, "Baxtiyor sevgini kulardi sozim", "Bahor keldi seni so'roqlab", "Ne baloga etding muftalo", "Ko'rganmidim ko'zlarimda yosh?", "Sen qaydasan. yuragim", "Hayot jilosi", "O'rik gullaganda", "Sensiz", "Izlayman" kabi jozib va dilbar, poetik qiymati juda baland she'rlarni alohida ta'kidlash va tahlil qilish mumkin. Bular o'z-o'zidan yaratilgani yo'q, albatta! Mazkur sanalgan she'rlarning har birida bir epik asarning mazmuni mujassam. Boshqacha aytganda, yirik manzumaning mazmuni inkishof qilingan. Shoira Zulfiya ularni o'n yoki oshib borsa o'n besh banddan oshirmagan. Shu bandlar tizmasida butun ijod va hayot, muhabbat va o'lim, yolg'izlik va tushunlik tushunchalari ta'sirdor bo'yoqlarda ifoda qilinadi.

Buyuk rus munaqqidi V.G.Belinskiy shunday yozadi: “Poeziyadan maqsad nima? Tabiat estetik tuyg‘u ato qilgan kishilar uchun bu masala juda muhim va ayni paytda juda mushkul tuyuladi. Poeziya o‘zidan tashqari bo‘lgan hech bir maqsadni ko‘zlamaydi. Bilimdagi haqiqatdek, harakatdagi ezgulik uning o‘zi maqsaddir”. Haqiqatdan ham, “harakatdagi estetika” nazmning taqdirini belgilaydi. Unda jamiki fazilatlar, ba‘zan kamchiliklar botiniy suvratni, ijodkor tiyatini, hayot haqidagi eng maqbul qirralarni yaxlitlashtiradi.

Odatda san‘at mag‘zida estetik tanlov turadi. Bu tanlov idrok nuqtai nazaridan ranginlasha boradi. Vaqt o‘tgani sayin inson o‘zligini yanada yaxshiroq anglaydi. Ruhning bepayon parvozlari davomli bo‘lishini istaydi. Ushbu jarayonda yaratilgan asar mazmunan pishiq, shaklan jozibdor bo‘lishi tayin. Turfa ziddiyatlarni bir satr bag‘riga zargar kabi joylash mahoratning yuksala borayotganidan dalolat beradi. Shuning barobarida istak, xohish, imkon va iroda yo‘nalishlari lirikaning tabiiy suvratini yanada go‘zallashtiradi. She‘riyat aslida – ichki tashnalik! Ehtiyoj zamirida millat orzusi mushohada tanlovini tartibga soladi. Ya‘ni asl tuyg‘ular realizmi voqelikni ong oqimi, iroda yo‘nalishi negizida tahlil qiladi. Shular jamlanmasi estetik tanlov hissiy kechinmalari poetik mutanosiblikni yuzaga keltiradi. Tabiatga taqlidan yaratilgan lirik “men” tushuncha mohiyatida aks ettirilgan falsafaga fusunkor mazmun tortiq qiladi. Shoir Zulfianing “Hijron kunlarida” turkumiga kiritilgan juda ko‘pchilik she‘rlarda ijodkor qalbidagi xilma-xil ziddiyatlarni, keskin to‘qnashuvlarni, ba‘zan o‘z-o‘zi bilan olishgan monolgik nutqlarni kuzatish mumkin. Sub‘ektiv kechinma umumestetik ruhdan oziqlanganini, badiiy tafakkur hayotiy tajribadan o‘tib chiqqanligini, aql bilan his qilinib, ko‘ngil bilan inkishof etilgan jihatlar ham borki, bular hech birimizning e‘tiborimizdan benazar qolmaydi. Darvoqe, “akademik I. K. Konrad Alisher Navoiyning “Layli va Majnun“ dostonini o‘qib chiqib, ajoyib simfonik musiqa tinglaganday bo‘lgan edim degan edi”. Shoir Zulfia ijodiga mazkur ibratomuz mushohadani muqoyasa qilsak, masala mohiyati yanada oydinlasha boradi. Ya‘ni “ajoyib simfonik musiqa”ga o‘xshash “Sensiz” she‘rida qalbning hijrondan o‘rtangan, itim tashnalik, visol yog‘dularining ko‘z o‘ngida faqat xayoliy suvrat hosil qilishi poetik yaxlitlikda maromiga yetkazilib ifodalanadi:

Mana bir umrni yashadim sensiz,

Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib.

Tobuting boshida cho‘kkanimda tiz,

Farzandlar ko‘tardi qo‘limdan tutib.

Yolg‘izlik va mahzunlik kafiyati butun she‘r haroratida aks ettirilgan. Unda lirik qahramonning sohir orzulari armonga evirilib qolganligi, badiiy voqelikning real manzarasi teran mushohada tanlovida estetik qadriyatlarni mujjasam qilgan. Ijodkor fitratidan o‘tib chiqayotgan hayotiy mushohada zalvori mudomi ezgulikning qoshida. Doimiy kuzatishlar poetik matn tabiatini yanada mukammalroq aks etishiga zamin hozirlagan. Aslida, lirikada kechinma uch o‘lchamli matn tarkibidan iborat: kuzatish, tahlillash, baholash. Hissiy idrok ongli ravishda talqin rang-barangligini yuzaga keltiradi. Negaki, teran mushohadaga boy lirik kechinmalar oqibatda bitta nuqtada o‘z tajassumini topadi. Bular poetik axborotning ijodkor shaxsiyatiga nechog‘li daxldorligi, shu voqelikning tadrijiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan “tuyg‘lar realizmi” haqqoniy manzarasining inkishof qilinishida qabarib ko‘rinadi. Ijodkor mushohada markaziga – qalbning orzu-umidlarini qo‘yadi. Bir qarashda estetik qadriyat negizida shaxsiy-intim kechinmalar aks etayotgandek taassurot uyg‘otadi, lekin mohiyatiga zimdan nazar tashlansa, insoniyat qismatiga daxldor, hamma uchun qadrlil va ibratli voqelik o‘ziga xos tarzda dunyoga kelishini teranroq anglay boshlaydi. Shoir Zulfianing juda ko‘plab she‘rlarida bu masalaning real ifodasini kuzatish mumkin.

“Sensiz” deb nomlangan she‘ri o‘z vaqtida haqqoniy bahosin olgan edi. Bu hqda vaqtli matbuotda ham, shoir Zulfia ijodi xususidagi esse, ijodiy portretlarda ham e‘tirof qilinadi. Akademik L. Qayumov mazkur she‘rni Zulfia lirikasining eng kulminatsion nuqtasi deya ta‘riflaydi: “Lirik qahramon sevgining butun tarixini ko‘z oldidan o‘tkazadi. Visol damlarini, farzand baxtini, hayot lazzatini, muhabbat sharbatini, rashk, raqiba vahimasini... Mana shu tuyg‘ular kaleydoskopidan hatto eng yoqimsizini ham bugun qabul qilishga rozi u. Chunki ulkan muhabbatga mayda hislar yot. Ammo shoiraning realizmi shundaki, bu xil ayriliqning zaharli ta‘mini ham yaxshi biladi, to‘g‘ri tasvirlaydi, ammo yorining hayot bo‘lishi uchun u eng og‘ir og‘uni yutishga rozi...”. Darhaqiqat, lirik yechinma zalvori L. Qayumov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, Zulfia taqdirining ayanchli manzarasini, qalbidagi dolg‘ali to‘lqinlar kabi mudomi harakatda bo‘lgan ayriliq va hijron nafasini “ochiq-oydin” kuzatish mumkin. Agar taqdir uning peshanasiga iztirobli qismatni ravo ko‘rmaganida edi, bunday qumsash, yolg‘izlik azoblarini totmagan bo‘lardi.

Ayonki shoir Zulfianing “biror-bir she‘ri yo‘qki, unda tabiat so‘zlamasa, harakat qilmasa, iztirob chekmasa, kuylamasa... Bu she‘rlarni o‘qirkansan, hatto ba‘zan tevarak-atrof, tabiat odamdan ko‘ra odamroqday, odamdan ko‘ra jonliroqday, odamdan ko‘ra qalbi borroq, hassosroqday tuyuladi”. Shoir

Zulfiya estetik olamini poetik yo'sinda yanada o'zgacha va betakror yuzaga chiqishida tabiat tasviri – peyzaj badiiy vazifdoshligi, o'rni beqiyos. Chunki intim lirikaning markazida tabiat hodisalari bilan ruhiyatning erkin parvozi ifodasi birinchi planda tasvirlanadi. Bir-biriga antiteza ba'zan mushtarak tushunchalar zahirida qalb va yurak harorati ziddiyatlari, tabiiy jarayonning ajralmas halqasini tashkil etishi ayonlashadi. Bahor – motivi bir-biridan keskin ziddiyatli mulohazalarni poetik butunlikda vobastalaydi. Bahor – taqdir kuzatuvchisi bo'lsa, qish uning mavhum idrok fasli. Xuddi tun va kun birikmasidek yaxlit manzarani, biri-ikkinchisining yuzaga chiqish sababiyati tarzida namoyon bo'ladi:

Qirlarga ilk chiqqan qo'yehivonlardek,

Qayda shoir, deya ayladi so'roq.

Barida sukunat ma'yuslik ko'rib,

Horib-charchab keldi, toqatlari toq...

“Bahor keldi seni so'roqlab” deb nomlangan mazkur xotira she'rida yuqorida ta'kidlanganidek, bahor falsining fusunkor qiyofasi lirik qahramonning ko'nglida kechayotgan hislarga madad bo'lish bilan barobarida, jamiki mavjud hodisa, predmetlardan “mash'ug” haqida sirlarni ochishga kalid vazifasini o'tamoqda. Bahor – poetik obraz bo'lib, jonlantirish usuli bilan yaxlit kechinmani idrok qilishga erishgan. Nazmning sirli tabiati ham aslida, jonsiz narsalarga jon ato etishdir. Navoiy ham tabiat hodisalarini, hol tili bilan ochib berishga juda jiddiy e'tibor qaratgan. Hol tili faqat o'zligida yangi sifatlar topgan zotlargagina nasib qilishini Mavlono Rumi ham yuksak qadrlaydi. Shoir Zulfiya o'zligida “hol tili bilan tillashgandek”. Bunda til tashqi faoliyat munosabati bilan emas, botinan his, sezgi, kechinma, ruhning fazoviy parvozi bilan munozaraga kirishadi:

“Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?

Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.

Nechun qora libos, sochlaringda oq,

Nechun bu ko'klamda sen parishonhol?”

Umuman olganda, bahorning mushohadakor ritorik savol-javoblari mohiyatan lirik qahramon tabiatidagi ongli shuuriy o'y-xayollarga taskin bo'layotgandek. Shoir atrofidagi odamlardan emas, tabiatning bir bo'lagi fasllar nazokati bahorga yukinadi. Bahorning batartib savollari, sifatu tavsiflaridan o'zini bir dam bo'lsa ham baxtiyordek his qiladi. Bahor ikki oshiqning xayolan visolga yaqinlashtirish maskani. Unda “tole va baxt” simfoniyasi o'z ovozi bilan yangray boshlaydi. Javobsiz so'roqlardan bahor ham toliqish sezmaydi. Aksincha shoir qalbining tanholigini his qilgandek, uning nazdida goh mung aralash kuy, goh sevinch jollarini to'kayotgan gullardek atrofida parvona bo'ladi. Ya'nikim, lirik matn poetikasiga daxldor – shakliy unsurlar voqelik sarzanishlaridan ma'lum qoliplarda tajassum topadi. Poetik qiymati o'ziga xos yaxlitlik kasb etgan mazkur she'rni shoir Zulfiya ijodining mo'jaz javohiri deya ta'kidlash o'rinli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Т.: “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1977.
2. Акрамов Б. Шеърят гавҳари. –Т.: “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1979.
3. Қаюмов Л. Зулфия. –Т.: “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1975.
4. Ғаниев И ва бошқ. Шавкат Раҳмон олами. –Т.: “Академнашр”. 2013.
5. Зулфия. Тонг билан шом аро. –Т.: “ШАРҚ”. 2005.

UO'K 81-13

TOG'AY MUROD ASARLARINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

Sh.M.Akbarova, tayanch doktorant, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon

Annotatsiya. *Tog'ay Murod asarlarini lingvo-pragmatik tadqiq qilish uning adabiy ijodidagi til, pragmatika va madaniy elementlarning murakkab o'zaro ta'sirini o'rganadi. Ushbu maqola Tog'ay Murod hikoyalarida mavjud bo'lgan lingvistik tanlovlar, nutq dinamikasi va pragmatik funktsiyalarni ajratib ko'rsatish, uning hikoya dunyosini tavsiflovchi ma'no qatlamlarini, muloqot strategiyalari va madaniy rezonanslarni ochishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Tog'ay Murod, lingvistika, lingvo-pragmatik tadqiq, idiomatik iboralar, shevalar, tahlil, pragmatik o'lchovlar, hikoyalar.*

Аннотация. *Лингвистико-прагматическое исследование творчества Тогая Мурада исследует сложное взаимодействие языка, прагматики и культурных элементов в его литературном творчестве. Целью этой статьи является освещение лингвистического выбора, речевой динамики и прагматических функций, присутствующих в рассказах Тогая Мурада, раскрытие смысловых слоев, коммуникативных стратегий и культурных резонансов, которые характеризуют его повествовательный мир.*